

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ ЁШ ОЛИМЛАР КЕНГАШИ
“BZONE CONSULTING CENTER” МЧЖ ҲАМДА
ЎЗБЕКИСТОН ИНТЕРНЕТ ТАДБИРКОРЛАР ВА ЭЛЕКТРОН САВДО АССОЦИАЦИЯСИ
ТАШАББУСЛАРИ БИЛАН

**“ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ФАН, ТАЪЛИМ ВА
ИННОВАЦИЯ УЙҒУНЛИГИ”**

мавзусидаги

**Республика 5-сон кўп тармоқли илмий-масофавий онлайн конференцияси 1-қисм
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**“НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ В ОБНОВЛЕНИИ УЗБЕКИСТАНА
И СОВМЕСТИМОСТЬ ИННОВАЦИЙ”
РЕСПУБЛИКА 5 – НЕСКОЛЬКО НАУЧНЫХ РАССТОЯНИЙ
МАТЕРИАЛЫ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ ЧАСТЬ 1**

**“SCIENCE, EDUCATION IN RENEWING UZBEKISTAN
AND COMPATIBILITY OF INNOVATION”
REPUBLIC 5 – MULTIPLE SCIENTIFIC DISTANCE
MATERIALS OF ONLINE CONFERENCE PART 1**

ТОШКЕНТ 2021

BUXORO VILOYATIDA ARXIV MUASSASALARI TIZIMINING SHAKLLANISHI (TUMAN VA SHAHAR ARXIVLARI MISOLIDA)

*Murodova Dilrabo Shomurodovna
BuxDU Stajyor-tadqiqotchisi
dilrabo.murodova82@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatida arviv muassasalarining shakllanishi,tuman va shahar arxivlarining dastlabki ish faoliyati, XX asrning 30-40 yillaridagi tarixiy jarayonlar tahlil etiladi

Kalit so`zlar: Arxiv, fond, ro`yxat, saqlov birliklari, hujjatlar, akt, tashkilot.

Vatanimiz tarixini xolisona o`rganish, tarixiy manbalar asosida tahlil qilish va ilmiy izlanishlar olib borish biz yosh avlodning xalqimiz va ona vatanimiz oldidagi muqaddas burchimizdir. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ta`kidlaganlaridek: "Buyuk tarixda hech narsa izsiz qolmaydi. U xalqning qonida, xotirasida saqlanadi. Amaliy ishlarda namoyon bo`ladi. Shuning uchun u qudratlidir."⁵⁷

1938 yilning 15 yanvarida Buxoro viloyatining tashkil qilinishi hududdagi arxivishiga ham o`z ta`sirini o`tkazmay qolmadi.⁵⁸ Arxiv ishida sodir bo`lgan sezilarli o`zgarishlar birinchilardan bo`lib kadrlar sohasida bo`ldi. Ilgarilari viloyat arxivida ikkitadan ortiqxodim ishlamagan bo`lsa, endilikda ularning soni sekin-astalik bilan ortib, ularga to`lanadigan maosh ham ko`tarila boshlagan. Bu o`zgarishlar albatta, arxiv ishi va hujjatlar saqlovini yaxshilash uchun ijobjiy xizmat qilgan.

1934-yil dekabrda RSFSR hukumatining “Rayon arxivlarini tashkil qilish to`g’risida”gi qarori qabul qilingan edi. 1935 yil 21 dekabrda esa O’zSSR MIKning qabul qilgan qarorga ko’ra hamma shahar va rayonlarda shahar va rayon arxivlari tashkil qilinishi kerak edi. Lekin qarorning ijrosi hamma joyda ham birday ta’minlanmagan. Buxoro viloyatida bu borada anchagina sustkashliklarga yo’l

⁵⁷Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. T.2018.B-205
⁵⁸Fayzullayev Sh.N.,Klichev O. A.Buxorodagi arxiv ishi tarixidan.-2015.B.42

qo'yilgan. Hatto 1939 yilga kelib ham rayon arxivlari ayrim sabablarga ko'ra o'z faoliyatlarini to'liq yo'lga qo'ymagan edilar. Bunday holatlarni viloyat davlat arxivni rahbarining rayonlarga qilgan xizmat safarlari, tekshirishlari, rayon arxivlari rahbarlarining hisobotlaridan bilish mumkin. Barcha rayonlarda ahvol deyarli bir xil bo'lib, ular bino va mablag'dan tanqislik sezganlar.

O'zSSR yuqori soveti 1938 yil 14 aprelda "Rayon arxivlari, qishloq sovetlari, kolxozlar, sovxozlardagi arxiv materiallarini tartibga solish va to'g'ri saqlash to'g'risida"gi qarorni qabul qilgan. Ushbu qarorning ijrosini tekshirish maqsadida Viloyat Arxiv Boshqarmasi boshqaruvchisi Axadov 1939 mayoyida Buxoro viloyatining qator tumanlariga xizmat safari bilan tashrif buyuradi. Shu yilning 20 may kunida tekshirishlar natijasi bo'yicha doklad yozgan. Uning dokladida aytilishicha - Shofirkon, G'ijduvon, Kogon, Sverdlov va Buxoro viloyatidagi boshqa qator rayonlar O'zSSR MIKning bir necha martalik ogohlantirishlari va arxiv bo'limi boshqarmasi xodimlarining tashrif buyurishlariga qaramasdan O'zSSR yuqori soveti prizidiumining qarorini bajarmaganlar va shu kunga qadar ham rayon arxivlari tuzilmagan, ularga hech qanday mablag' ajratilmagan⁵⁹. Aslida 1938 yil aksariyat rayonlarga arxiv rahbari lavozimiga MAB tomonidan arxiv kurslarini bitirgan kishilar xizmat safari bilan yuborilgan edi. Lekin rayon Ijroqo'mlari ularga hech qanday bino ham, hech qanday mablag' ham ajratmaganlar. Buning oqibatida ular boshqa ishlarga o'tib ketgalar. Bunga misol sifatida G'ijduvon rayoniga yuborilgan – Ashurov, Romitanga yuborilgan – Botirov, Qiziltepaga yuborilgan – Azimovlarni aytish mumkin⁶⁰.

1938 yilda tuzilgan rayon va shahar arxivlari ro'yxati⁶¹:

- | | |
|--------------|----------------|
| 1. G'ijduvon | 19. Shaxrisabz |
| 2. Shofirkon | 19. Yakkabog' |
| 3. Buxoro t. | 20. Boysun |

⁵⁹Buxoro VDA, f-15, 1-ro'yxat, 9 ish, 8-varaq

⁶⁰Buxoro VDA, F-15, 1-ro'yxat, 9 ish, 10-varaq

⁶¹Buxoro VDA, f-15, 1-ro'yxat, 9 ish, 5-varaq

- | | |
|-----------------------------|-------------------------|
| 4. Vobkent | 21. Denov |
| 5. Kogon | 22. Jarqo'rg'on |
| 6. Qorako'l | 23. Sherobod |
| 7. Qizil-tepa | 24. Sho'rchi |
| 8. Romitan | 25. Sari-Osiyo |
| 9. Karman | 26. Termiz |
| 10.Konimex | 27. Qamashi |
| 11.Sverdlosk | Shahar arxivlari |
| 12.Qarshi | 1. Temiz |
| 13.Beshkent | 2. Buxoro |
| 14.G'uzor | 3.Kogon |
| 15.Dehqonobod (eski Qarshi) | 4.Qarshi |
| 16.Koson | 5.Shaxrisabz |
| 17.Kitob | 6.G'ijduvon |
| 18.Chiroqchi | |

40-yillarga kelib yana mutaxasis kadrlarning muammosi “bosh ko’targan”. Markaziy davlat arxivining 1940 yilgi hisobotida aytishicha Fargo’na va Buxoro viloyat davlat arxivlarida kadrlar masalasi bo'yicha muammolar yuzaga kelgan. Buning oqibatida Buxoro arxiv bo'limi yillik hisobotlarni topshirmagan va yillik ma'lumotlarda qayd etilmagan. Buxoro viloyat ПХКВД (УНКВД) davlat arxivining 1941 yilgi hisobotida aytishicha Buxoro viloyat davlat arxivining 1941 yilgi faoliyati asosan doimiy kadrlarni saralash, tekshirish va mustahkamlashdan, tartibga solingan arxiv materiallarini davlat arxiviga toplash, yangi arxiv fondlarini yaratishdan, rayon arxivlarini tuzish va muassasalardagi arxiv materiallarini tartibga

solistdan iborat bo’ladi. 1941 yilda hammasi bo’lib 1985 saqlov birlikda arxiv materiallari jamlangan⁶².

- 113 ta so’rov tushgan bo’lib, ularning 80 tasiga ijobiy, 33 tasiga rad javobi berilgan. Arxivda Buxoro studiyasi va radiosi bilan hamkorlikda ilmiy hamda publikatsion ishlar ham amalga oshirilgan.

- Inspektorlik ishiga keladigan bo’lsak, rejada 27 ta tuman Arxiv tashkilotlari va 10 ta tuman muassasalarini tekshirish nazarda tutilgan edi. Aslida 19 ta tuman arxivi va 4 ta shahar: Kogon, Shahrishabz, G’ijduvon, Karmana shahar arxivlarida tekshirishlar o’tkazilgan. Ko’rsatilgan rayonlarda ham tuman ham shahar arxivlari tuzilgan bo’lib, arxivchilar tayinlangan. Ishlar birmuncha ijobiy yo’lga qo’yilgan. Kolxoz, soxoz, MTS, qishloq sovetidagi arxiv materiallari esa jamlanmagan.

Buxoro shahridagi 80 ta tashkilot va muassasa arxivlarida tekshirishlar o’tkazilib, arxivlari tartibga solingan. Ularning 30 tasida maxsus arxivchi xodimlar bor ekanligi qayd etilib, mavjud ahvol to’g’risida akt tuzildi⁶³.

- Yana Viloyat Arxivi shu yili muvaffaqiyatli ravishda idoraviy arxivlar uchun 10 ta yosh kadrlarni seminarlar o’tkazish yo’li bilan tayyorlab chiqaradi⁶⁴.

- Rejada hamma fondlarni ro’yxatga olish nazarda tutilgan bo’lib, lekin ro’yxatga olish bo’yicha mutaxassis kadrlarning yo’qligi sababli amalda faqat 200 ta fond ro’yxatga olingan. 1941 yildagi maxfiy deb topilgan 21 ta fond, 242 saqlov birlikdagi hujjatlar ustida ish olib borilib, ular alohida qilib ajratiladi.

- Hamma fondlarning ro’yxatga olinmaganligi sababli ro’yxat jadvali to’ldirilmagan, jadval hisobga olish ishlari tugatilgandan keyin to’ldirilishi aytilgan.

⁶²Buxoro VDA, f-15, 1-ro’yxat, 33 ish, 1-varaq

⁶³Shahar xalq ta’limi, №3 maktabgacha bilim yurti, Viloyat sog’lijni saqlash bo’limi, Poliklinika, Feldsherlik maktabi, Qizil yarim oy jamiyati, Musiqa bilim yurti, Tikuv fabrikasi, Viloyat xalq ta’limi, №15 Bilim yurti, Madaniyat uyi, Shahar sog’lijni saqlash bo’limi, Davlat musiqa-drama teatri, Qorako’l zavodi, Viloyat non tresti, Tayyorlov idorasi(go’sht), Limonad zavodi, Ipakchilik fabrikasi, Shahar komunal xo’jalik xizmati, Viloyat ijroya qo’mitasi, Davlat banki, Omonat kassasi, Shahar moliya bo’limi, Viloyat moliya bo’limi, Oydin arteli, Uztrans bazasi, Viloyat ijtimoiy ta’minot bo’limi, Shuningdek, xalq sudi, prokuratura va boshqa muassasalarda arxiv hujjatlariga munosabat to’g’ri yo’lga qo’yilganligi e’tirof qilingan.

⁶⁴Buxoro VDA, f-15, 1-ro’yxat, 33 ish, 3-varaq

Bundan tashqari viloyat arxiviga Farg'ono viloyat IIХК Arxiv bo'limi bilan sotsialistik shartnoma tuzish ham topshirilgan. Lekin bu shartnomaning qanaqa mazmunda ekanligi aytilmagan. Bu haqda boshqa ma'lumotlar uchramaydi.

XX asrning 30-40 yillarida BVDA filiallari yuqorida qayd etilgan murakkab tarixiy jarayonlarni o'z boshidan kechirdi. Biroq, shunga qaramasdan Buxoroda dastlabki arxiv ishining yo'lga qo'yilganligi sababli bugungi kunga qadar viloyat davlat arxivi va uning filiallarida muhim hujjatlar mujassamlangan. 2020-yil yanvar holatida BVDA ning filiallari 12 tani tashkil etadi

Ilmiy – tadqiqqot ishimizning debochasi sifatida Buxoro viloyatida arxiv muassasalari tizimining tashkil topishi va ularning dastlabki faoliyati xususida to'xtalib o'tdik. Xalqimiz, ajdodlarimiz bosib o'tgan yaqin tarixning bir qismini o'zida aks etgan bu hujjatlar arxivshunos va tarixchi olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda nihoyatda katta manbaviy ahamiyatga egadir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Sh.M.Mirziyoyev Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. T.2018.B-205
2. Fayzullayev Sh.N., Klichev O. A. Buxorodagi arxiv ishi tarixidan.-2015.B.42
3. Buxoro VDA, f-15, 1-ro`yxat, 9 ish, 8-varaq
4. Buxoro VDA, F-15, 1-ro`yxat, 9 ish, 10-varaq
5. Buxoro VDA, f-15, 1-ro`yxat, 9 ish, 5-varaq
6. Buxoro VDA, f-15, 1-ro`yxat, 33 ish, 1-varaq
7. Buxoro VDA, f-15, 1-ro`yxat, 33 ish, 3-varaq

11. <i>Xoliqov Lazizjon</i> , HAMJIHATLIK VA TOTUVLIK FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING ROLI.....	63
12. <i>Karimova Komila</i> , ORASIDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	69
13. <i>Рахимов Илхомжон</i> “МАҲАЛЛА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИНИНГ ПОЙДЕВОРИ”.....	72
14. <i>Toshmirzayev Suxrobbek</i> , UZLUKSIZ TA'LIM TARBIYA TIZIMINING YOSHLARNI IJTIMOIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONI BILAN O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	80
15. <i>Nodirabegim Otabekova</i> , BUGUNGI KUNDA O'ZBEKISTON YOSHLARIGA BO'LAYOTGAN YUksak E'TIBOR	84
16. <i>Nazarbekova Hilola Mirzoyev Jamshid</i> OILA - MUQADDAS DARGOH.....	87
17. IV БЎЛИМ. ФАЛСАФА ВА ҲАЁТ СОҲАСИДАГИ ҚАРАШЛАР	
18. <i>Шодиева Моҳинур, Олтибоев Мирзоҳид</i> ЁШЛАРНИНГ МАЊНАВИЙ ОНГИ ВА ФАЛСАФИЙ БИЛИМИНИ РИВОЖЛАНИШИДА ҚАДИМГИ ЮНОН ВА РИМ ФАЛСАФАСИНИНГ ЎРНИ.....	91
19. <i>Turdiyev Bexruz Sobirovich</i> , YANGIANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHALARINING ROLI.....	94
20. <i>Qurbanov Rashid Ramazonovich</i> SHAXS MA'NAVİYATINI RIVOJLANTIRISH VOSITALARI.....	100
21. V БЎЛИМ. ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР	
22. <i>Исмоилова Малоҳат</i> ТАРИХ ДАРСЛАРИДА ТАРИХИЙ МАНБАЛАРДАН ВА БОШҚА АДАБИЁТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	103
23. <i>Ниёзов Нурали Рустамович</i> АСРЛАР СИНОВИДАН ЎТГАН ДЎСТЛИК РИШТАЛАРИ.....	105
24. <i>Хамроқулова Назокат</i> , ХИВА ОБИДАЛАРИ МОЗИЙДАН СЎЗЛАЙДИ.....	110
25. <i>Ярашова Моҳларойим</i> БУХОРО ВОҲАСИ АЁЛЛАРИНИНГ АНЬАНАВИЙ ЛИБОСЛАРИ (XIX АСР ОХИРИ XX АСР БОШЛАРИДА).....	119
26. <i>Samadova Hurmat Masharifovna</i> SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA SADRI ZIYO XONADONIDAGI “TO'GARAK” TAVSIFI.....	126
27. <i>Шерали Гулямович Джураев</i> , НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ УЧЁНОГО-ВОСТОКОВЕДА Б.А.КАЗАКОВА. ИЗУЧЕНИЕ РУКОПИСЕЙ БУХАРСКОГО МУЗЕЯ.....	131
28. <i>Murodova Dilrabo Shomurodovna</i> BUXORO VILOYATIDA ARXIV MUASSASALARI TIZIMINING SHAKLLANISHI (TUMAN VA SHAHAR ARXIVLARI MISOLIDA).....	137
29. <i>Muqaddas Xamrayeva Qudratovna</i> , BERUNIYNING GEOGRAFIK QARASHLARI: TARIX VA HOZIRGI ZAMON.....	142
30. <i>Erkinov Rustam</i> BOLALAR O'YINLARINING TARIXIY ILDIZLARI.....	146